



## QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'NING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

**Bobomurodov Abdurasul**

*O'zbekiston Respublikasi Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
abdurasulbobomurodov05@gmail.com*

**Annotatsiya:** Huqumatlar yildan-yilga elektronlashib bormoqda. Deyarli, barcha davlat idoralari jumladan soliq tizimi o'zlarining rasmiy veb-sayt va avtomatlashtirilgan tizimlariga ega. Raqamlashtirish soliq organlariga elektron hisobotlar to'ldirishni soliq to'lovchilarga taklif etish, elektron xizmatlar ko'rsatish va soliq to'lovchilarning bojxona va xo'jalik faoliyati yuzasidan nazoratni olib borish imkoniyatini taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Qo'shilgan qiymat solig'i, xorijda, rivojlangan mamlakatlar, qo'shilgan qiymat zanjiri, qo'shilgan qiymat solig'i zanjiri, import, eksport, soliqlar, davlat byudjeti, raqamlashtirish.

**Abstract:** Governments are becoming more electronic year by year. Almost all government agencies, including the tax system, have their own official website and automated systems. Digitalization provides tax authorities with the opportunity to offer taxpayers the ability to fill out electronic reports, provide electronic services, and conduct control over taxpayers' customs and economic activities.

**Keywords:** Value added tax, abroad, developed countries, value added chain, value added tax chain, import, export, taxes, state budget, digitization.

**Абстрактный:** Государственные органы с каждым годом все больше переходят на электронные технологии. Практически все государственные учреждения, включая налоговую систему, имеют собственные официальные веб-сайты и автоматизированные системы. Цифровизация предоставляет налоговым органам возможность предлагать налогоплательщикам электронную отчетность, предоставлять электронные услуги и осуществлять таможенный и экономический контроль за налогоплательщиками.

**Ключевые слова:** налог на добавленную стоимость, за рубежом, развитые страны, цепочка создания добавленной стоимости, цепочка налога на добавленную стоимость, импорт, экспорт, налоги, государственный бюджет, цифровизация.

### Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi kunda fuqarolar, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatlar o'rtasida o'zaro elektron bog'lanish imkoniyatiga ega tarmoq mavjud va bu ma'lumotlarni umumiy lashtirish va o'zaro foydalanish imkoniyatini yaratadi. So'nggi 20 yillikda elektron ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, kuzatish va tarqatish bo'yicha sezilarli rivojlanish kuzatildi.

Huqumatlar yildan-yilga elektronlashib bormoqda. Deyarli, barcha davlat idoralari o'zlarining rasmiy veb-sayt va avtomatlashtirilgan tizimlariga ega. Raqamlashtirish soliq organlariga elektron hisobotlar to'ldirishni soliq to'lovchilarga taklif etish, elektron xizmatlar ko'rsatish va soliq to'lovchilarning bojxona va xo'jalik faoliyati yuzasidan nazoratni olib borish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa o'z navbatida soliq qonunchiligiga rioya etish darajasini, soliq tushumlarini real vaqtda monitoring qilish, soliq auditlarini o'tkazish va soliq risklarini aniqlashda keng va katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan bir qatorda, elektron ma'lumotlarning tranzaksiyalarini qo'shilgan qiymat solig'i ma'lumotlari bilan bog'lash imkoniyatini ham taqdim etadi va ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligini kuzatish imkoniyatini yaratadi. Rivojlangan davlatlar allaqachon raqamlashtirish jarayonida bir qator muvaffaqiyatlarga erishganlar. Shu bilan bir qatorda, ayrim rivojlanayotgan davlatlar tajribasida ham ushbu yo'nalishda ijobiy yutuqlarga erishayotganligini kuzatish mumkin. Bunga misol sifatida, Yevropada Estoniya, Lotin Amerikasida Chili, Osiyoda Singapur va Afrika mintaqasida Janubiy Afrikani misol keltirish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).**

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) dunyoning 170 dan ortiq davlatida qo'llaniladigan bilvosita soliqlardan biri bo'lib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda xalqaro amaliyotda QQSni takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirish, raqamlashtirish va soliq ma'muriyatchiligini kuchaytirishga alohida

e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda QQSning iqtisodiy samaradorligi uning soddaligi, shaffofligi va soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish imkoniyatlari bilan izohlanadi [1].

Jahon amaliyotida QQSni boshqarishda OECD mamlakatlari tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davlatlarda QQS tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida yagona soliq stavkalarini qo'llash, imtiyozlarni maqbullashtirish, elektron hisob-fakturalar tizimini rivojlantirish hamda real vaqt rejimida soliq nazoratini tashkil etish tavsiya etiladi [2].

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda QQS samaradorligini oshirish uchun soliq bazasini kengaytirish, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan soliq ma'muriyatchiligini joriy etish zarurligi ta'kidlangan [3].

Jahon banki ekspertlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar QQS ma'muriyatchiligini raqamlashtirish biznes yuritish muhitini yaxshilashi, tadbirkorlarning xarajatlarini kamaytirishi hamda byudjet tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlashini ko'rsatadi. Ayniqsa, elektron hisob-fakturalar va onlayn nazorat-kassa mashinalari QQS yig'imdorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi [4].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasida transchegaraviy savdo operatsiyalarida QQSni undirishning yagona tamoyillari shakllantirilgan. So'nggi islohotlarda elektron tijorat operatsiyalarini soliqqa tortish, One-Stop Shop (OSS) tizimini joriy etish hamda QQS firibgarligiga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirilgan [5].

Osiyo davlatlari, xususan Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasi QQS ma'muriyatchiligida to'liq raqamlashtirilgan platformalardan foydalanish samaradorligini namoyon etmoqda. Mazkur mamlakatlarda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida soliq xavflarini avtomatik baholash tizimlari joriy etilganligi natijasida soliq intizomi sezilarli darajada yaxshilangan [6].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda QQS tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, QQS stavkasining pasaytirilishi, elektron hisob-fakturalarning joriy etilishi, QQSni qaytarish mexanizmining soddalashtirilishi va Soliq kodeksining yangi tahriri ushbu yo'nalishdagi muhim o'zgarishlar hisoblanadi [7].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, raqamli xizmatlar, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikalari va "Soliq-servis" platformalari QQS ma'muriyatchiligini sezilarli darajada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va byudjet tushumlarini oshirish imkonini bermoqda [8].

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, O'zbekistonda QQSni yanada takomillashtirish istiqbollari xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish, soliq imtiyozlarini optimallashtirish, elektron nazorat mexanizmlarini kengaytirish hamda sun'iy intellekt asosidagi risk-tahlil tizimlarini joriy etish bilan bevosita bog'liqdir [9].

#### **Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).**

Mazkur tadqiqotda qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilish amaliyoti hamda uni O'zbekiston sharoitida takomillashtirish istiqbollari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy taqqoslash usullaridan foydalanildi. Xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning QQS bo'yicha tajribasi o'rganilib, ularning soliq stavkalarini, ma'muriyatchilik mexanizmlari, elektron hisob-fakturalar tizimi hamda QQSni qaytarish amaliyoti O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar, jumladan OECD, IMF, Jahon banki, Yevropa Komissiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi va amaldagi Soliq kodeksi materiallari tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar asosida QQS tizimining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar baholanib, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or xorijiy tajribalar aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni tahlil qilish, matnni uslubiy jihatdan takomillashtirish va ma'lumotlarni tizimlashtirish bosqichlarida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan yordamchi vosita sifatida taxminan 30 foiz darajada foydalanildi. Bunda AI faqat axborotni tartibga solish, ilmiy uslubni takomillashtirish va tahliliy jarayonlarni qo'llab-quvvatlash vazifalarini bajardi. Tadqiqotning ilmiy g'oyasi, tahlili, xulosalari va yakuniy natijalari muallif tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqildi.

#### **Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).**

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligi sifatining umuman olingan ko'rsatkichlaridan biri soliqni yig'iluvchanligi koeffitsiyenta bo'lib, u haqiqatda olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasing soliq qarzi summasiga nisbatini ifoda etadi. Bu koeffitsiyentdan foydalanib qo'shilgan qiymat solig'i fiskal funksiyasini amalga oshirish samaradorligini ham baholash mumkin. (bogomazova va vodopyanova, 2016).

Smirnovaning (2018) fikricha, qo'shilgan qiymat solig'i eng muhim fiskal xususiyatga ega, chunki boshqa soliqlardan farqli o'laroq, inflyatsiya ko'rsatkichlarining o'zgarishiga, energiya va xom ashyo narxlarining o'zgarishiga bevosita ta'sir qilmaydi, bu esa byudjet daromadlarining umumiy tuzilmasida, hatgo inqirozda ham soliq ulushining barqaror dinamikasi bilan tasdiqlanadi.

Hozirgi kunda Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqqa a'zo mamlakatlarda bilvosita soliqlarning stavkalarini bir-biriga to'g'ri kelmaydi va bunday soliqlarni yig'ish tayinlangan mamlakat stavkasi asosida amalga oshiriladi, ya'ni tovarlar import qilishda import qiluvchi davlatda qo'llaniladigan stavka qo'llaniladi (Kolchin, 2008).

Mishenkoning (2014) fikricha qo'shilgan qiymat solig'i soliqni to'g'ri qo'llash sharti bilan soliq betarafiligini yaratadi. Soliqning bu xususiyatidan xalqaro bozorda savdo operatsiyalarini soliqqa tortish uchun foydalaniladi. Shunga asosan aytilish mumkin, iqtisodiy "betaraflik" ning bu shakli xalqaro savdo mexanizmini to'g'ri ishlashi uchun muhim ahamiyatga ega. Qo'shilgan qiymat solig'i ichki savdo operatsiyalariga nisbatan bir xil ahamiyatga ega. Ushbu soliqning o'ziga-xos xususiyati shundan iboratki, uni hisoblashda quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinmaydi: yakuniy iste'molchiga yetmasdan mahsulot o'z egasini necha marta o'zgartirdi va mahsulot tannarxining qancha qismi realizatsiyaning muayyan bosqichida tovarlarning (mahsulot, xizmat) tannarxiga qo'shildi.

Chaadayeva (2015) fikri ham yuqorida keltirilgan Smirnovaning fikriga yaqin bo'lib, muallifning ta'kidlashicha: qo'shilgan qiymat solig'ining muhim fiskal xususiyati shundaki, keng soliq bazasi tufayli boshqa soliqlarga qaraganda xom ashyo va energiya narxlarining bozor o'zgarishiga kamroq ta'sir qiladi, bu byudjet daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'i ulushining barqaror dinamikasidan dalolat beradi.

Raqamlashtirish–jamiyatdagi voqea va hodisalar bo'yicha ishonchli va tizimlashtirilgan axborotlarni o'zida saqlovchi raqamli texnologiyalarni integratsiyalashtirish jarayoni bo'lib, fiskal siyosatda iqtisodiy voqealarning bo'yicha o'z vaqtida axborotga ega bo'lish va qaror qabul qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Biroq, soliq siyosatini ishlab chiqish, yuritish va baholashda har doim ham aktual va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish, ulardan foydalanish imkoniyati yuzaga kelavermaydi. Raqamlashtirish – savdo-sotiq tranzaksiyalari bo'yicha ma'lumotlarni operativ tahlil qilish imkoniyatini oshirish orqali soliq qonunchiligiga rioya qilinish darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish dunyo bo'yab tez va keng tarqalmoqda. 2015-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 10 yillikda dunyo bo'yicha internet foydalanuvchilari 3 barobarga ko'payib 3.2 mlrd.ni tashkil etgan. Aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi fuqarolar mobil texnologiyalardan, ular orqali o'quv yurti, elektr-energiya, ichimlik suvi kabi tizimlarning elektron xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. (WB, 2016)

OECD tomonidan 2020-yilda "Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration" qo'llanmasi chop etilgan. Ushbu qo'llanmada bugungi kunda iqtisodiy faoliyat turlari va shakllari keskin o'zgarib borayotganligidan kelib chiqib, soliq ma'muriyatlarining oldida turgan dolzarb masalalar to'g'risida fikr yuritilgan va soliq ma'muriyatlari uchun samarali ma'muriyatchilik olib borish bo'yicha integratsiyalashtirilgan platforma modeli taklif etilgan. Unga ko'ra, soliq organlarining ma'lumotlar bazasi qanday tashqi manbalardan o'zaro integratsiya qilishini lozimligi, integratsiya jarayonidagi mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha so'z yuritilgan.

Hozirgi kunda fuqarolar, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatlar o'rtasida o'zaro elektron bog'lanish imkoniyatiga ega tarmoq mavjud va bu ma'lumotlarni umumiyalashtirish va o'zaro foydalanish imkoniyatini yaratadi. So'nggi 20 yillikda elektron ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, kuzatish va tarqatish bo'yicha sezilarli rivojlanish kuzatildi.

Huqumatlar yildan-yilga elektronlashib bormoqda. Deyarli, barcha davlat idoralari o'zlarining rasmiy veb-sayt va avtomatlashtirilgan tizimlariga ega. Raqamlashtirish soliq organlariga elektron hisobotlar to'ldirishni soliq to'lovchilarga taklif etish, elektron xizmatlar ko'rsatish va soliq to'lovchilarning bo'xona va xo'jalik faoliyati yuzasidan nazoratni olib borish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa o'z navbatida soliq qonunchiligiga rioya etish darajasini, soliq tushumlarini real vaqtida monitoring qilish, soliq auditorlarini o'tkazish va soliq risklarini aniqlashda keng va katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan bir qatorda, elektron ma'lumotlarning tranzaksiyalarini qo'shilgan qiymat solig'i ma'lumotlari bilan bog'lash imkoniyatini ham taqdim etadi va ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligini kuzatish imkoniyatini yaratadi. Rivojlangan davlatlar allaqachon raqamlashtirish jarayonida bir qator muvaffaqiyatlarga erishganlar. Shu bilan bir qatorda, ayrim rivojlanayotgan davlatlar tajribasida ham ushbu yo'nalishda ijobiy yutuqlarga erishayotganligini kuzatish mumkin. Bunga misol sifatida, Yevropada Estoniya, Lotin Amerikasida Chili, Osiyoda Singapur va Afrika mintaqasida Janubiy Afrikani misol keltirish mumkin (IMF, 2019).

Qo'shilgan qiymat solig'ining xalqaro amaliyotiga nazar tashlasak, ushbu soliq dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida undirilgani holda, stavkasi turlicha ekanining guvohi bo'lamiz. Ushbu ma'lumotlar tahlilidan ko'rinadiki, qo'shilgan qiymat solig'ining 10 foizgacha bo'lgan stavkasini qo'llovchi davlatlar 15 tani, 10 dan 15 foizgacha bo'lgan stavkasini qo'llovchi davlatlar 35 tani, 15 dan 20 foizgacha bo'lgan stavkasini qo'llovchi davlatlar 61 tani (shundan 4 tasi YEI mamlakatlari), 20 va undan yuqori foizli stavkasini qo'llovchi davlatlar 39 tani (shundan 24 tasi YEI mamlakatlari) tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'ining 15 dan 20 foizgacha bo'lgan stavkalarini qo'llovchi mamlakatlar soni nisbatan ko'pchilikni, ya'ni jamiga nisbatan 41 foizni tashkil etadi.

Davlatlar tarkibiga nazar tashlasak, 20 va undan yuqori foizli stavkani qo'llovchilarning aksariyati (qariyb 80 foizi) Yevropa davlatlari, shu jumladan 16 tasi G'arbiy Yevropa va Skandinaviya davlatlari ekanini ko'rishimiz mumkin. Biz yaxshi bilamizki, ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti yuksak darajada rivojlangan, aholisi yaxshi ta'minlangan va istemol darajasi ancha yuqori. Tabiiyki, bunday davlatlarda iste'molga

solliqlarning yuqori stavkasini qo'llash salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining yuqori stavkasini qo'llovchi mamlakatlar orasida bizning davlatimiz ham borligini ko'rishimiz mumkin. Biroq bu mamlakatlardan 32 tasida, ya'ni 82 foizida qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llovchi ko'pchilik mamlakatlar qatori tabaqalashgan (qisqartirilgan) stavkalaridan foydalaniladi.

Rivojlangan davlatlardan faqat Daniyada qo'shilgan qiymat solig'ining qisqartirilgan imtiyozli stavkasi mavjud emas. Shunisi e'tiborga molikki, Yaponiya (8%), Shveysariya (8%), Lixtenshteyn (8%), Singapur (7%), Malayziya (6%), Kanada (5%) va Tayvan (5%) kabi iqtisodiyoti rivojlangan qator mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ining 5-8 foizli stavkasi qo'llanadi. Shuningdek, BRICS mamlakatlaridan JAR (14%), Braziliya (12%), Hindiston (5.5%) hamda Katta 20 lik (G20) tarkibiga kiruvchi Filippin (12%), Avstraliya (10%), Janubiy Koreya (10%) va Indoneziya (10%) kabi davlatlarda ham qo'shilgan qiymat solig'ining 15 foizdan past bo'lgan stavkalari qo'llanadi. Hatto, qo'shni Qozog'istonda ham ushbu soliq stavkasi 12 foizni tashkil qiladi.

Shunday bo'lsada, ushbu davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i orqali byudjet daromadlarining anchagina bilangina qo'shilgan qiymat solig'i yig'iluvchanlik darajasini oshirish va soliq yukini optimallashtirish mumkin emas. Buning uchun qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqib, ushbu soliqni undirish mexanizmini to'g'ri yo'lga qo'yish, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'ini ishlab chiqarish va realizatsiyaning barcha bosqichlarida undirib borgan holda barcha tadbirkorlik subyektlariga joriy qilish lozim.

Shu bilan birga, soliqqa tortishdagi adodat va ijtimoiy himoyani ta'minlash maqsadida uning tabaqalashgan (umumiy, imtiyozli va nol

darajali) stavkalarini joriy qilish maqsadga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'ining tabaqalashgan stavkalari 58 ta mamlakatda yoki qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llovchi barcha davlatlarning qariyb 40 foizida amal qiladi.

#### **Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).**

Bugungi kunda soliq to'lovchilar uchun joriy etilgan elektron xizmatlar doirasida soliq va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, solliqlarni to'lash, soliq organlaridagi shaxsiy kartochka ma'lumoti bilan tanishish, ortiqcha to'lovni qaytarib olish yoki boshqa soliq turiga o'tkazish, hisobvara-q-faktura yuborish kabi majburiyatlar elektron tarzda bajarilishi mumkin.

Biroq, davlat soliq xizmati organlarining ma'lumotlar bazasi bir qator vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilinganligi, soliqqa oid munosabatlar elektron ko'rinishga o'tkazilganligiga qaramay, iqtisodiyotimizda soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari yetarlicha ko'zga tashlanmoqda. Xususan, jamiyatda "Obnal ishi" deb nom olgan – davlat soliq xizmati organlari tomonidan pul mablag'larini naqdlashtirish bilan shug'ullanuvchi "bir kunlik firmalar" aniqlanishi va ularning xizmatidan foydalangan tashkilotlarning qo'shilgan qiymat solig'i summasini noqonuniy hisobga olish deb topilishi shular jumlasidandir.

Bu kabi holatlarni o'z vaqtida aniqlash yoki ularni yuzaga kelishini oldini olishda eng muhim vosita bo'lib, ma'lumotlarning to'liqligi va sifati hisoblanadi.

Soliq ma'muriyatchiligi o'z oldiga qo'yan vazifalarni amalga oshirishi uchun eng muhim narsa bu sifatlari va to'liq ma'lumotdir. Sifatli va to'liq ma'lumotlar bazasini faqatgina rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda zamonaviy axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):**

1. Organisation for Economic Co-operation and Development. Consumption Tax Trends 2024: VAT/GST and Excise Taxes, Core Design Features and Trends. Paris: OECD Publishing, 2024.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development. International VAT/GST Guidelines. Updated Edition. Paris: OECD Publishing, 2024.
3. International Monetary Fund. Fiscal Monitor: Putting a Lid on Public Debt. Washington, DC: IMF, 2024.
4. World Bank. Business Ready 2024. Washington, DC: World Bank, 2024.
5. European Commission. VAT in the Digital Age (ViDA) Package. Brussels, 2024.
6. Asian Development Bank. Digital Transformation of Tax Administration in Asia and the Pacific. Manila: ADB, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2025-yil holatidagi tahriri). Toshkent, 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. 2024-yil yakunlari bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi hisoboti. Toshkent, 2025.
9. International Monetary Fund. Revenue Administration Handbook 2024: Modernizing Tax Administration. Washington, DC: IMF, 2024.